



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 510 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdullaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Guldon Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmonov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash	365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Аuezova	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна	
O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot	417
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tadbirlarning o'rni	423
G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati.....	426
Islomova Xafiza Azamatovna	
O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati	430
Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna	
Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi.....	434
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Muhandislik ta'limida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish.....	438
Muxitdinov Abdurahob Abduvalievich	
Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish	442
Nishanova Hafiza Vafogulovna	
Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni integratsiyalashning ta'limiy samaradorligi	446
Rahimova Indira Quddrat qizi	
Sotsiologiyatning asosiy tushunchalari va konsepsiyalari	451
Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi	
Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili	455
Tursinova Zoxida Sharabidinovna	
Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil.....	463
Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li	
Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.....	466
Xasanova Mashxura Abduvalievna	
Ta'lim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi.....	471
Ortiqova Yulduz Akram qizi	
Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish	475
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni aniqlashda L. Starkining tanqidiy fikrlashni baholaydigan modifikatsiya qilingan testidan foydalanish metodikasi	479
Egamberdiyeva Nodira Melibayevna, Xaydarova Ra'no Anvarovna	
Akademik litseylarda fizikani o'qitish jarayoniga "Case-Study" metodini integratsiyalash	484
Batirov Behzod Barotovich	
Nasriy asarlarni o'rgatish samaradorligini oshirish	489
Maftunaxon Akbarova	



Autik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o'qitish	493
Norboyeva Zamira Ravshanbekovna	
Milliy libos dizaynida an'anaviy va zamonaviy elementlar uyg'unligi	496
Xo'jamurodova Sevinch Abdilmajidovna	
Роль дидактических игр в развитии пространственного воображения учащихся	499
Валиев А. Н., Иброхимова Д. Н.	
Технология проблемного обучения как средство формирования критического мышления при обучении русскому языку	505
Собирова Гулибарно Зайнитдин кизи	



NASRIY ASARLARNI O'RGATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Maftunaxon Akbarova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nasriy asarlarni maktab adabiyot ta'limida samarali o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari tahlil etilgan. Unda adabiy asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rgatish zarurati, badiiy tahlilning metodik asoslari, adabiy o'qishning o'quvchilardagi estetik qabul jarayonidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Sharhli o'qish, adabiy-nazariy tushunchalar orqali poetik matnni tushuntirish, obrazlar va ularning psixologik tahlilini o'quvchilar tafakkuriga singdirish metodlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: nasriy asar, adabiy tahlil, sharhli o'qish, didaktik yondashuv, mumtoz adabiyot, badiiy obraz, xarakter.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical foundations of effectively teaching prose in school literature education. It discusses the necessity of teaching literary works according to their genre and type characteristics, the methodological foundations of artistic analysis, and the role of literary reading in students' aesthetic perception. The methods of close reading, explaining poetic texts through literary-theoretical concepts, and methods for instilling images and their psychological analysis into students' minds are extensively covered.

Key words: prose, literary analysis, close reading, didactic approach, classical literature, artistic image, character, educational process, aesthetic perception, literary education.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические основы эффективного преподавания прозы в школьном литературном образовании. Обсуждается необходимость обучения литературным произведениям в зависимости от их жанровых и типологических особенностей, методические основы художественного анализа и роль литературного чтения в эстетическом восприятии учащихся. Широко освещены методы комментированного чтения, объяснения поэтического текста через литературно-теоретические понятия, а также методы внедрения в сознание учащихся образов и их психологического анализа.

Ключевые слова: проза, литературный анализ, комментированное чтение, дидактический подход, классическая литература, художественный образ, характер, учебный процесс, эстетическое восприятие, литературное образование.

KIRISH

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M.A. Ribnikova: "Metodik usullarni asar tabiati taqozo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib, qisqacha qayta hikoya qilamiz, epilogni sinfda o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi", – deya fikr bildiradi [7; 58].

Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. Prof. Q. Yo'ldoshevning yozishicha, "turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi". Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, "asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi" [5; 118].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalaniladi. Bularning orasida adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o'zak muammolari o'quvchining ko'z oldida osonroq gavdalanadi. Adabiy o'qishda dastlabki urg'u tushishi lozim bo'lgan o'rinlar ajratiladi, ular o'quvchilarning ongiga ham, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Gap nasriy asarlar ustida borar ekan, ularda "har qanday hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan" bo'lishiga e'tibor berish zarurati bo'ladi. Chunki "qahramonlarni hayotiy voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati nasriy asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylashtirish imkonini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – nasriy asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi" [4: 20].

Nasriy asar o'rganilayotganda personajlar xatti-harakatlari uning xarakter mantig'iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak. Ya'ni nasriy asar tahlil qilinayotganda, obrazlarning gap-so'zlari, qiliqlari, fikrlari ularning sajiyalariga muvofiqligi, ruhiy jihatdan asoslanganiga e'tibor qilinishi va asarning asl qiymati ana shulardan keltirib chiqarilishi lozim. Nasriy asar tahlili faqat mantiqiy operatsiyaga aylanib qolmasligi, balki hamisha asardan go'zallik topishga intilish diqqat markazida turishi joiz. Nasriy til jozibasini, turli-tuman badiiy vositalar tufayli to'qilgan estetik mo'jizalarni payqay olish, bundan lazzatlanish hamda shu lazzatning manbasini tushunish va zarur bo'lsa, tushuntirib bera olish kishining ma'naviy yuksalishida beqiyos katta ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nasriy asarlar tahlilida badiiy shartlilik, obrazlilik, olamni o'zgacha estetik nazar bilan ko'rish mumkinligi ko'zda tutilishi o'quvchilarni xilma-xil ijodiy yo'nalishdagi, turli janrlardagi badiiy hodisalarni qabul qilish va asl san'at asarlarini ommabop bitiklardan ajrata olishga o'rgatadi. Bu esa o'quvchining adabiy-estetik dunyoqarashini shakllantirib, uni badiiy tafakkurga tayyorlaydi. Shu nuqtayi nazardan, adabiy o'qish o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali ishlashi uchun asosiy metodik vosita sifatida maydonga chiqadi. Adabiy o'qish vositasida alohida olingan qahramonning yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqeyi, asar mavzusi, yozuvchi ko'zda tutgan badiiy-estetik niyatning ifoda tarziga e'tibor qaratilishi mumkin. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida Muqimiyning "Tanobchilar", Gulxaniyning "Zarbul-masal" asarlarini o'qish jarayonida har ikki adib tanlagan janrlarning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o'quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko'zda tutilgan badiiy-estetik mazmunni anglay olmaydilar. Natijada ulardagi haqiqiy badiiy tarovat yo'qqa chiqadi, ular o'quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yordam bera olmaydi.

O'quvchilarning mumtoz adabiyot namunalari ma'no-mazmunini o'zlashtirishlarini sharhli o'qishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'tmishda yaratilgan asarlarni bugungi kun o'quvchisi uchun qadrlil va qiziqarli qilish, ularni mutolaa qilishni hayotiy ehtiyojga aylantirishda tarixiylik tamoyiliga amal qilinadi. Bu esa o'sha asarni haqqoniy baholashga, o'z davri doirasida o'rganish va bugungi kunimizga bog'lab tushunishga imkon beradi. O'tmish shu tariqa zamonamizga bog'lanadi. Bunda o'quvchilarga tarixiy asarda aks etgan voqealarning vaqti hamda makonini tushuntirish muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qadim zamonlardan buyon ilmiy o'rganishda keng qo'llanib kelingan usullardan biri sharhlab o'rganishdir. "Sharh" arabcha so'z bo'lib, "ochish", "bayon etish", "oshkor qilish" kabi ma'nolarni anglatadi. Navoiy asarlari lug'atida esa "sharh aylamak" – "izohlamok" tarzida bayon etilgan [2:12]. Ba'zi manbalarda "sharh" tavsifga o'xshab ketishi, bu atama garchi sharh bilan ma'nodosh bo'lsa-da, kengroq mazmunni anglatishi qayd etiladi. Yevropa ilmiy atamashunosligida "sharh" tushunchasi hamma vaqt ham bir xil ma'noni ifoda etmagan. Masalan, "sharh" so'ziga rus adabiyotshunosligida "komentariy" atamasi to'g'ri kelib, u bayon etish kabi ma'nolardan tashqari, keng ma'noda – ya'ni ilmiy tadqiqot xarakteridagi ishlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Tajribali o'qituvchilarning fikricha, sharhlab o'qitish orqali biror asar matnini izohlash jarayonida o'quvchilar notanish so'z ma'nosi bilan, ayrim so'zlarning ko'chma ma'nosi yoki bir so'zning bir necha xil ma'nolari bilan tanishadilar. Tarixiy-badiiy asarlarni o'rganish orqali arxaik shevaga xos, arab va fors tilidan kirgan so'zlar ma'nosi oydinlashadi, o'quvchilar ko'z o'ngida o'tmish madaniyati yoritiladi. Ba'zan darsda mavzuni badiiy asar nomini sharhlashdan boshlashga to'g'ri keladi. Masalan, Boburning she'rlarini o'rgatishda u yashagan davr haqida ikki og'iz gapirishdan boshlash zarur; o'quvchilar o'sha davrga kirsa, darsning mazmundorligi ortadi.



“Boburnoma”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarlarini sharhlashda ham xuddi shu yo'lni tutish mumkin. Shunga o'xshash asarlarni sharhlash quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. **Lingvistik sharh.** Tushunilishi qiyin so'zlar, ma'nosi notanish va noaniq so'zlar izohi. Sharhning bu turini quyidagi so'zlar qamrab oladi: arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, dialektizmlar, arab va fors so'zlar izohi. So'zlarni shu tarzda izohlash uning qaysi tilga mansubligi haqida ham ma'lumot beradi.
2. **Tarixiy-milliy sharh.** Bu xil sharhda qadimiy milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlar izohlanadi.
3. **Tarixiy-adabiy sharh.** Bunda adabiy asarlardagi tarixiy davr bilan bog'liq an'analar izohlanadi.

Bundan tashqari, asarlarni sharhlashda yana quyidagi turkum so'zlar izohi bo'lishi mumkin: geografik joy nomlari, badiiy asardagi tarixiy shaxslar, ular haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar, xalq maqollari, iboralar va tasviriy vositalar, qahramonlarning ismi, tashqi qiyofasi, kiyim-boshi, buyumlari, son bilan ifodalangan so'z va iboralar va hokozolar. Adabiy asarning, jumladan, nasriy turga mansub bo'lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biridir. U “o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat” yaratadi [6; 67]. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar asarning poetik mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga e'tibor qaratadi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi. Ularning qay birini tahlil qilayotganda qanday usul va yo'llardan foydalanish kerak degan savolga bir xildagi javob berish mumkin emas. Bu vazifani alohida olingan sharoit, sinfning o'ziga xosligi, o'quvchilarning adabiy tayyorgarligi, qolaversa, o'qituvchining o'z bilim va tajribasidan kelib chiqib hal etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nasriy asarlarni tahlil qilishda ham o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o'rinda turadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–6-sinflarida asosan eposning kichik janrlari – ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o'rganiladi. Yirik nasriy asarlarni o'rganish esa yuqori sinflarda o'rganilishi rejalashtirilgan. Ularning har birini o'rganishda o'ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi. Misol uchun, umumta'lim maktablarida Xojaning nasriy ijodidan “Gulzor” asarini o'rganish rejalashtirilgan. Dars jarayonida avval yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot beriladi, bu orqali uning adabiy merosi nafaqat o'zbek adabiyoti, balki turkiy va jahon adabiyoti taraqqiyotida ham muhim o'rin egallagani alohida qayd etiladi. Keyingi bosqichda esa o'qituvchi asarning mazmunini yorituvchi muhim sahnalarga e'tibor qaratadi. Bu bosqichda pedagog o'ziga mos keladigan uslub va metodlardan foydalansa bo'ladi. Natijada o'quvchilarda Xojaning adabiy yo'ldagi bosqichlari haqidagi to'liq va real tasavvurlar shakllanadi hamda uning ilmiy-ma'rifiy va estetik ijodiy yondashuvi chuqurroq anglashiladi. Biroq bu kabi o'quv samaradorligiga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi, balki turli xil samarali metodik yondashuvlarni talab qiladi. Bu borada darsning kirish va yakunlovchi qismlari, o'quvchilarning ijodiy topshiriqlari katta rol o'ynaydi. Ushbu ishlar davomida asarning asosiy g'oyasi, alohida sahnalarning umumiy syujet va kompozitsiyadagi o'rni, ilgari o'rganilgan materiallar bilan bog'liqligi ochib berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu o'rinda bir jihatni unutmaslik kerak: zamonaviy katta hajmli romanlar tahlili murakkab bo'lgani kabi, mumtoz nasriy asarlarni o'rganish ham turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunga, avvalo, matndagi qadimgi so'zlarning ko'pligi, o'sha davr badiiy-estetik talablari va adibning o'ziga xos uslubi sabab bo'ladi. Bundan tashqari, keng qamrovli asarlarni chuqur o'rganish uchun ajratiladigan vaqt cheklangani sababli, o'qituvchilar va o'quvchilar samarali usullarni izlashga majbur bo'ladi.

Adabiyot o'qitishning vazifalaridan biri – asar ustida ishlash mobaynida o'zlashtirish va his etishda o'quvchida bilim hamda hissiyot birligini ta'minlashdan iborat [1; 245]. Shu o'rinda har bir o'qituvchi badiiy asarni tahlil qilish tamoyillarini bilishi zarur. Zero, badiiy asarning mazmuniy-estetik mohiyatini ochib berishda tahlilning turli yo'nalishlari – genetik, tipologik, filologik, psixologik va funksional yondashuvlar muhim vosita sifatida maydonga chiqadi.

Genetik tahlilda asarning yuzaga kelish jarayoni, variantlari, yozilish sabablari tadqiq etiladi; tipologik tahlilda asarni yuzaga keltirgan badiiy yoki hayotiy manbalar, tahlil etilayotgan asarning o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlarga o'xshash hamda farqli tomonlari, asar muallifi bilan o'zga adiblar orasidagi ijobiy ta'sir kabilarni aniqlashga e'tibor qaratiladi; filologik tahlilda asar filologik hodisa sifatida til va tasvir vositalarini qo'llash, tilning tasvir imkoniyatlari doirasida badiiy shakllar yaratish nuqtayi nazaridan tekshiriladi; psixologik-funksional tahlilda asarning ijtimoiy ta'sir kuchini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi, asarning muayyan millat ma'naviyatidagi, milliy adabiyotdagi o'rni tekshiriladi, yaratilgan zamonidagi yoki tekshirilayotgan davrdagi kishilar tafakkuriga qilgan ta'siriga alohida diqqat qilinadi, asardagi qaysi obraz yoki tasvir orqali qanday ijtimoiy qonuniyat yoxud muammo yoritilgani aniqlanadi [3; 53].

Tahlil shunday uyushtirilishi kerakki, o'quvchilar tengdoshlari fikriga qo'shiluvchi tinglovchi emas, balki o'z mulohazalarini matndan dalillar bilan asoslab bera oladigan faol va qat'iyatli ishtirokchiga aylansin. Shundagina



o'quvchilar mumtoz asarlarni tushunadi, tahlil qiladi hamda o'rganish bo'yicha qiziqishi ortadi. Adabiy asarlarni boshqa san'at namunalari bilan qiyoslash orqali ham yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ammo, afsuski, bu usul kamdan-kam o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladi. Mumtoz asarlarni tarixiy o'tmish bilan bog'liqlikda o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Adabiyot nazariyasiga oid bilimlar o'quvchilarga shunchaki nazariy ma'lumot tarzida emas, balki badiiy asar mohiyatini to'g'ri tushunish, estetik go'zalligini his etishga o'rgatish maqsadida berilishi kerak. Adabiy-nazariy tushunchalarni puxta o'zlashtirgan o'quvchigina badiiyat sirlarini teran anglaydi. Badiiy syujet, kompozitsiya, mavzu, konflikt, g'oya, adabiy qahramon, tasviriy ifoda vositalari to'g'risidagi tushunchalar so'z san'atining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan tasavvur berishga qaratilsa, adabiy an'analar, oqimlar, ijodiy metodlar, adabiy tur va janrlar haqidagi bilimlar adabiyotning tarixiy taraqqiyoti, qardosh xalqlar adabiyotlari bilan aloqasi, ijtimoiy-estetik mohiyati bo'yicha umumlashtiruvchi xulosaga tayyorlaydi.

Har bir asar keng kitobxonlar ommasini nazarda tutib yozilsa-da, uni tushunish, muallif fikrlarini qabul qilish-qilmaslik, estetik ta'sirlanish xususiylik kasb etadi. Masalan, Gulxaniyning biror masalini 6-sinf o'quvchisi ham, katta yoshli kishi ham o'qishi, o'rganishi mumkin. Lekin o'quvchi undan o'ziga yarasha, katta yoshli kishi o'ziga yarasha xulosa chiqaradi. Yoki bir xil asarlar ba'zi o'quvchilarda iliq taassurot qoldirsa, ba'zilariga umuman yoqmasligi mumkin. Ammo gap u yoki bu asarning yoqish-yoqmasligi yoxud kimning qanday xulosa chiqarishida emas, uni nechog'li teran tushunishida. Kuzatishlar badiiy asar matni tagzaminidagi yashirin ma'noni anglashda adabiy-nazariy tushunchalar muhim dasturulamal bo'lishidan dalolat beradi. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari mutolaasi buning yorqin dalilidir.

"Zarbulmasal" – majoziy asar. Undagi shoirning g'oyalari, maqsadi – turli obrazlar, maqol, matal, hikoyat va rivoyatlar vositasida pardali tarzda ifodalanadi. Asarda shoirning vatan, xalq qismati, insonning ma'naviy dunyosi borasidagi o'y-fikrlari, dardu armonlari, nola-fig'onlari o'z ifodasini topgan. Shoirning asosiy maqsadi – kishilarni o'ziga tanitish, nuqsonlaridan ogoh etish. Chunki o'zini anglash – Oллоhni tanishga olib boruvchi vositadir. Nasriy asar o'rganilayotganda personajlar xatti-harakatlari uning xarakter mantig'iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak. Ya'ni nasriy asar tahlil qilinayotganda, obrazlarning gap-so'zlari, qiliqlari, fikrlari ularning sajiyalariga muvofiqligi, ruhiy jihatdan asoslanganiga e'tibor qaratilishi va asarning asl qiymati ana shulardan keltirib chiqarilishi lozim. Nasriy asar tahlili faqat mantiqiy operatsiyaga aylanib qolmasligi, balki har doim asardan go'zallik topishga intilish diqqat markazida turishi joiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nasriy asarlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashi, hissiy idroki va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Adabiy asarlarning tur va janr xususiyatlariga mos tahlil usullarini qo'llash, ayniqsa mumtoz nasr namunalarini sharh orqali o'rganish, ularning tarixiy, lingvistik, adabiy kontekstini ochib berish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va adabiy tayyorgarligi asosida metodlarni moslashtirish, estetik mazmunni anglatishda adabiy-nazariy bilimlardan foydalanish ularni badiiy tafakkurga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, o'qituvchining metodik mahorati, darsdagi didaktik yondashuvlar, obrazli tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar o'quvchida badiiy tafakkur, estetik sezgirlik va tahliliy fikrlash malakalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M. "Dasht-u dalalarda" hikoyasini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti: IV an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: 2020. – 245-bet.
2. Eshonqulov H. Navoiyshunoslik. Lirik asarlarni sharhlash: g'azal sharhi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2023. – 12-bet.
3. Matyoqubov S. Badiiy tahlil asoslari. O'quv qo'llanma. – Nukus: 2021. – 53-bet.
4. Mirqosimova M. Adabiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: 1993. – 20-bet.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 118-bet.
6. Zunnunov A. O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. – Toshkent: 1973. – 67-bet.
7. Рыбникова М.А. Очерки по методике литературного чтения. – Москва: 1985. – 58-бет.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.